



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOYLASHUVI OMILLARI

Mengliyeva Gavhar Ibroxim qizi

“Bolshebniy zamok” nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni va unga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiylashuv hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim davrida bolaning oilasi, tarbiyachilar, tengdoshlar, muhit, kommunikativ o‘yinlar va ommaviy axborot vositalari kabi tashqi omillar bilan o‘zaro ta’siri uning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada ijtimoiylashuv omillarining psixologik va pedagogik jihatlari chuqur tahlil qilinadi, bolalarning shaxslararo munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirish jarayonida uchraydigan muammolar yoritilgan. Mualliflar tomonidan ilg‘or tajriba va ilmiy qarashlar asosida bolalar ijtimoiylashuvini rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yosh, ijtimoiylashuv, bola psixologiyasi, shaxs rivojlanishi, tarbiya, pedagogik omillar, ijtimoiy kompetensiya, muhit, oila, kommunikatsiya.*

Bolaning ijtimoiylashuvi – juda uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Har qanday jamiyat shunga intiladiki, har bir bola ma’lum ijtimoiy va ahloqiy qadriyatlar tizimiga, shu jamiyat me’yor va qoidalariga ega bo’lishi, shu jamiyatda yashash uchun, teng huquqli a’zosi bo’lishga intiladi [20; 68-b.]. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o‘zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Zero, shaxs ma’lum ijtimoiy hayot mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta’siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ya’ni, birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxs kamolga yetadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo‘qotish mumkin. To‘rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to‘rt yondashuv qaror topgan:

1. Biologik yondashuv- inson tabiiy mavjudot bo‘lib, uning butun xatti-harakatlari tug‘ma





instmkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv-inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv- insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi-qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondoshuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik jismoniy) va psixolik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli boiadi.

Bola shaxsining shakillanishi va rivojlanishi muammosining o'rganilishi.

O'zbekistonda oila masalalariga e'tibor naqadar kuchli bo'lishiga qaramay, bola shaxsiyatiga aloqador muhim jihatlari, xususan, o'zini o'zi anglashi jarayonida ota va ona munosabatlarining real o'rni masalasi maktabgacha yoshdagi bolalar misolida alohida tadqiqot doirasida o'rganilmagan. O'zbekistonlik olimi M. Salayeva o'zining ota-ona va bolalar munosabatlarining ijtimoiy psixologik qonuniyatlariga bag'ishlangan dissertasion tadqiqotida (2005) aniqlagan qonuniyatlar ushbu jabhaga oid bilimlar ko'lamini ancha kengaytirganligini e'tirof etish bilan birga, ushbu munosabatlarning ayni shu davrdagi o'zini anglash jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini alohida o'rganmaganligini qayd etish joiz. U o'z tadqiqotida ota-ona va bolalarning o'zaro munosabatlarda "...jinsiy, hududiy-psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega" (Salayeva M., 2005, 7 b.) ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, "O'zbek oilasining an'anaviy etnik xususiyatlari kuchliroq saqlanib qolgan qishloq oilalaridagi shaxslararo munosabatlarda jinsiy differensiallashish kuchliroq kuzatiladi" (o'sha yerda, 7 b.). Muallif o'z tadqiqotida ushbu jarayonlarning boladagi "Men" obrazi va o'zini anglashga aloqadorligini maxsus o'rganmagan bo'lsa-da, biz uning asosiy xulosalarini nazariy-metodologik asos uchun foydali, deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, K.X. Rahimova (2000) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot aynan bizni qiziqtirgan maktabgacha yoshdagi bolalardagi ma'naviy tasavvurlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda qo'lga kiritilgan empirik xulosalar biz uchun manfaatlidir. U bolalar ijtimoiy xulqini oila muhitida ham o'rganib, bunda ota-onalardagi ijtimoiy tasavvurlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. "Ma'naviy tasavvurlarning xususiyati, deb ta'kidlaydi muallif, - bevosita bolani o'rab turgan muhitga bog'liq bo'lib, unda ota-onalarning ijtimoiy-gumanitar munosabatlarga nisbatan qarashlari (mehmonnovozlik misolida) hamda bu borada bolalar mazkur jarayonni qanday idrok etishiga bog'liqdir"



(Rahimova K.,2000,19b.). O‘smir yoshli bolalarda oilaviy nizolar to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarni o‘rgangan A. Kadirova (2007) esa o‘z disseratsion tadqiqotida ota-onalar va ularning o‘z farzandlariga bo‘lgan munosabatini yuqori baholaydi va “...ota-onalarning o‘z farzandlariga nisbatan identifikatsiyasi – tushunish darajasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘z navbatida oilaviy qadriyatlar to‘g‘risida ilk bolalikdan shakllanadigan bilimlar, tasavvurlar va ijtimoiy baholash tizimi bilan bog‘liq ijobiy ustanovkalarni shakllantiradi” (2007,8b.) deb yozadi. Bu kabi tadqiqotlar yurtimizda pedagog va psixologlar tomonidan o‘rganilganni alohida ta’kidlash bilan birgalikda bizni qiziqtirgan ilmiy muammo maxsus izlanishlarning predmetiga aylantirilmaganligini qayd etish joizdir. Ya’ni, asosan tadqiqotlarda individ hayot faoliyatining asosiy jabhalari, uning shaxs sifatida shakllanishi va namoyon bo‘lishi jamiyatning rivojlanayotgan shaxsga ko‘rsatuvchi ta’sirini ifodalovchi va o‘zgartiruvchi kichik guruhlarda kechadi, degan fikr alohida ta’kidlanadi. Oila kichik ijtimoiy guruh va o‘z ijtimoiy maqomi bo‘yicha bolaning ijtimoiylashuv jarayonini amalga oshiruvchi jamiyatning ijtimoiy instituti sifatida ijtimoiy-psixologik asoslarga ega. Ushbu kichik guruhga jalb qilingan bola uning uchun ta’sir ko‘rsatish obyektiga, ijtimoiylashuvning o‘zi esa – madaniyat talablari, bolaning oilaviy va jamiyat qadriyatlarini faol o‘zlashtirishi, kelajakda ularni individ sifatida, jamiyatda shaxs sifatida xulq-atvori va o‘rnini (pozitsiyasini) belgilab beruvchi tizimga shakllantiruvchi bola shaxsini modellashtirish jarayoniga aylanadi.

Bola shaxsining shakllanishi, rivojlanishi muammosi xorijiy va Respublikamiz olimlari tomonidan ilmiy o‘rganib kelinmoqda. Respublikamizning pedagog va psixolog olimlari, o‘zbek oilasining va xalqining o‘z farzandlari bilan o‘zaro munosabatlari va o‘zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlari masalalarini o‘rganishda o‘z xissalarini qo‘shmoqdalar.

Oilada bola tarbiyasi borasida pedagog olimlardan D.J.Sharipova, M.Inomova, A.K.Munavvarov, O.To‘rayeva va boshqalar, faylasuflardan J.T.Tulenov, E.Yu.Yusupov, I.M.Mo‘minov va boshqalar; psixolog olimlardan M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog‘inov, E.N.Sattarov, T.M.Adizova, G.M.Mamatov, A.M.Jabbarov, R.E.Gaynutdinov, R.I.Sunnatova, B.M.Umarov, F.A.Akramova, M.Sh.Rasulova, N.S.Salayeva va boshqalar ilmiy jihatdan o‘zbek xalqining etnik ustanovkalarini o‘rganish maqsadida izlanishlar olib borishgan.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan tadqiqotlarda isbotlangan, bolaning kelajagi, uning shaxs bo‘lib kamol topishi ko‘p jihatdan ota-ona oilasi, u to‘g‘rida farzandda shakllangan tasavvurlarga bog‘liq ekanligi psixologlar tomonidan ancha batafsil o‘rganilgan. Masalan, M. Salayeva o‘zining ota-onalar va farzandlar o‘zaro munosabatlarining etnopsixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishida ushbu holatlardagi otaning o‘ziga xos o‘rniga ham e’tibor qaratgan. Uning ta’kidlashicha, “Ota-onalarning ota-onalik roliga nisbatan ustanovkasi va munosabat ko‘rsatgichlari o‘zbek onalarida otalarga nisbatan kuchliroq ifodalanishi bilan tavsiflanadi” (Salayeva, 2005,7 b.) Boshqa tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolaning o‘z oilasi to‘g‘risidagi tasavvurlari ko‘pincha ota-onaning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tasavvurlari va asl holat bilan qisman mos keladi. Odatda ota-ona o'z farzandi uchun qo'lidan kelgan barcha choralarni ko'rayotganday, buni bola anglashini va undan hamisha minnatdor bo'lishi kerakligini kutadi, lekin bolalar bu xususda turlicha tasavvurga ega bo'ladilar.

D.J.Sharipova - o'z izlanishlarini yosh bolasi bor ota-onalar o'rtasida tibbiy-pedagogik bilimlarni hal qilish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirgan. U, oilada bolaning sog'lom, yetuk bo'lib tarbiyalanishi uchun ota-ona har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi xuddi shu holat oilada bola tarbiyasiga ta'sir qilishi, oila oldida turgan tarbiyaviy vazifalarni aniq va ravshan bilish zarurligini, o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini tanlashga ijodiy yondoshuvlari lozimligini ko'rsatadi.

Milliy oilaviy tarbiya zahirida shaxs milliy madaniy merosidan bahramandlik, o'z xalqi tarixi, san'ati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlari, dinni puxta bilishlari, milliy o'zligini anglashlari, vatan, xalq, millat manfaatlari uchun ma'sullik, milliy g'urur, milliy xarakterning sifat ko'rsatkichlaridir; shaxsda milliy xarakterni shakllantirishda milliy ahloqiy madaniyatining ahamiyati benihoya kattadir.

M.O. Inomova ta'kidlaganidek, - tarbiya nazariyasi nuqtai-nazaridan milliy xarakterni shakllantirish, bu shaxsning aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va estetik kabi ko'p qirrali tarkibiy qismlarini yaxlit jarayon sifatida amalga oshirishni anglatadi. Bunda milliy tarbiya shaxsni o'z hulqi, millati bilan bog'laydi.

A.K. Munavvarovning izlanishlariga ko'ra, har bir millat o'ziga xos madaniyati, milliy ruhiyatiga ega bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham milliy xususiyati, xarakteri, tuyg'ulari, o'z-o'zini anglash, quyi va ruhiy qiyofasi alohidaligi bilan boshqa xalqlarnikidan ajralib turadi.

Yirik psixolog olimlardan M.G.Davletshin, - oilada ota-onalarning farzandlarga bo'lgan munosabatlarida o'zaro yordam, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlikda ish olib borish, oilada mehnatni taqsimlash, xo'jalik ishlariga ko'maklashish kabi muammolar yechilmas ekan, ular o'rtasida doimiy tushunmovchiliklar, aytishib qolishuv va nizo-janjallar yuzaga kelib turishi mumkinligi to'g'risida gapiradi.

Hayot jarayonida bolada shunday motivlar shakllanadiki, bu motivlar bola uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lib, boshqa barcha motivlarni o'ziga bo'ysundiradi. Bolaning xulq-atvori va faoliyati ustidan barqaror hukmronlik qiluvchi motivlar bola shaxsining yo'nalishini barpo etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son farmoni.



2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ–637-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.
4. Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped.fan.nom...diss. avtoref. – T.: 1998. – 18 b.
5. Akramova F.A., Bilolova Z.B., Jovliyev I.S. Oila ensiklopediyasi. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – B. 3–8.
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008. – 170 b.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 96 b.
8. Norbosheva M.O. Maktabgacha yoshdagi bolaning mulqot subyekti sifatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss. – TDPU nashriyoti, 2022. – 130 b.
9. Norbosheva M.A. Ijtimoiy va pedagogik psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Ilm ziyo zakovat”, 2023. – 186 b.
10. Nishanova Z.T. va boshq. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – T.: 2011. – 248 b.
11. Eshmuradov O.E. Oila mustahkamligini ta’minlashning ijtimoiy psixologik omillari: Psixol. f. b.f.d. ilmiy darajani olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2022. – 82 b.
12. Eshmuradov O.E. Oila mustahkamligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy ustanovkalarining etnopsixologik xususiyatlari. Monografiya. – Termiz, 2024. – 32 b.
13. Eshmurodov O. (2023). Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari. *Jurnal “Pedagogika va psixologiya zamonaviy ta’limda”*, (I). Olingan: <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>
14. Eshmurodov O. (2023). Sog‘lom psixologik muhit oila barqarorligining omili sifatida. *Jurnal “Pedagogika va psixologiya zamonaviy ta’limda”*, (I). Olingan: